SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DUSHANOVA NARGIZA MAMATKULOVNA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINING YUQORI DARAJADAGI KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI “PHENOBL” TA’LIM YONDASHUVI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 37.091.3:378+811.111

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогических наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

DUSHANOVA NARGIZA MAMATKULOVNA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINING YUQORI DARAJADAGI KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI “PHENOBL” TA’LIM YONDASHUVI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fa'n va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped8171 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.samdchti.uz hamda "ZiyoNet" axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Tuxtasinov Ilhomjon Madaminovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Sabirova Gulnoza Sadikovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Normatova Nurjamol Normatovna pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.37.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____"_____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____dagi №_____-raqamli reyestr bayonnomasi).

U.U. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.E. Rustamova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

A.Y. Nurmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta’lim tizimi oldida raqamli transformatsiya, bilim iqtisodiyoti va innovatsion jamiyat talablariga javob beradigan yangi model – Universitet 4.0ni shakllantirish vazifasi turibdi. Ushbu modelning asosiy xususiyati talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni – tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, ijodkorlik va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilganligidir. Universitet 4.0 modeli doirasida ta’lim jarayonini real hayotiy voqeliklar bilan integratsiya qilish, fanlararo chegaralarni yengib o‘tish va innovatsion ta’lim yondashuvlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, fenomenlarga asoslangan ta’lim (PhenoBL) yondashuvi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmi sifatida qaraladi. “PhenoBL” ta’lim yondashuvi talabalarni murakkab muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, baholash va ijodiy yechimlar topishga tayyorlaydi, shuningdek, bilimlarni turli kontekstlarda tanqidiy qo‘llash imkonini beradi. “PhenoBL”orqali real hayotga asoslangan muammolarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirish masalasi Universitet 4.0 modelining nazariy asoslari va amaliy talablari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilishning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Dunyo ta’lim amaliyotida, fenomenlarga asoslangan ta’lim (PhenoBL) innovatsion yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda. Xususan, Finlyandiya ta’lim tizimi “PhenoBL”ni milliy o‘quv dasturlariga integratsiya qilish orqali yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar – tanqidiy fikrlash, tahlil qilish, baholash va ijodiy fikrlashni samarali rivojlantirishga erishmoqda. Ushbu tajriba “PhenoBL” ta’lim yondashuvining fanlararo integratsiya, real voqelikni izchil o‘rganish va o‘quvchilarni mustaqil hamda ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishdagi salohiyatini yaqqol namoyon etmoqda. Mazkur yondashuvning interdisiplinar xarakteri ta’lim oluvchilarga bilimlararo bog‘lanishlarni shakllantirish, ta’limni kontekstual va moslashuvchan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Shu bois, PhenoBL nafaqat umumiy ta’lim tizimi uchun, balki Universitet 4.0 modelini shakllantirishda ham dolzarb ahamiyat kasb etib, zamonaviy ta’limni modernizatsiya qilishning muhim mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda.

O‘zbekiston mustaqilligi davrida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Bu jarayon, avvalo, Universitet 4.0 modelini shakllantirishni, ya’ni talabalarda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu borada mamlakatimizda ko‘plab amaliy, nazariy va konseptual ishlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fenomenlarga asoslangan ta’lim (PhenoBL) yondashuvi fanlararo integratsiya va real hayotiy muammolarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvni chet tillarini o‘qitishda tatbiq etish nazariy va amaliy jihatdan dolzarb ilmiy ehtiyoj sifatida namoyon bo‘lmoqda[1].

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta’lim tizimini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-sonli “Oliy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash sifatini yaxshilashda iqtisodiyotning tarmoqlari va sohalarining ishtirokini kengaytirish choralari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli “O‘zbekiston Respublikasi hududida xorijiy tilni o‘rganishning sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqilishi choralari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 18-maydagi 292-sonli Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi yangi tashkil etilgan ilmiy tashkilotlar faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 10-oktabrdagi 816-sonli "Oliy ta’lim muassasalarini o‘quv adabiyotlari bilan ta'minlash to‘g‘risida"gi qarorlarini hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tillarini o‘qitish muammolari I.M.Tuxtasinov, J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, L.T.Ahmedova, T.K.Sattorov, M.Jusupov, D.U.Hoshimova, U.U.Jumanazarov, A.E.Rustamova, A.Ya.Nurmuratov[2] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Kognitiv rivojlanish masalalari mamlakatimiz olimlaridan L.R.Zaripov, G.A.Amanova, A.A.Ibragimov, B.R.Adizov, D.B.Mirboboyeva[3] tomonidan tadqiq etilib, bu sohaning rivojlanishiga katta hissa qo‘shishgan.

---

[2] Tukhtasinov I. M. Discursive approach in the training of translators //Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture. – 2017. – С. 229-231.; Жалолов Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. – Т., 2012. – 432 б.; Bakieva G.Kh., Tukhtasinov I.M. Expressing Stylistic Devices in Compound Words // Eastern European Scientific Journal. – Ausbage, 2018. №3 – p. 49-55; Ахмедова Л.Т. Роль и место педагогических технологий в профессиональной подготовке студентов. – Ташкент: Фан ва технология, 2009. – 160 с.; Сатторов Т. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси (инглиз тили материалида) ТДЮИ. – Т., 2003. – 198 б.; Джусупов М. Билингвальное образование: проблема звуковой и лингвокультурной интерференции. // Вестник РУДН. 2017. №3. – С.351-358.; Хошимова Д.У. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межязыковых взаимодействий: Дис. … докт. Пед. наук. – Т., 2007. – 209 с.; Jumanazarov U. U. Innovative learning technologies in the digital learning environment //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 8. – С. 120-125.; Eshankulovna R. A. The importance of assesment in foreign language teaching //scientific approach to the modern education system. – 2025. – Т. 3. – №. 35. – С. 27-31.; Anvar N. Developing the professional competence of english language teachers through grants in the context of international cooperation //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g ‘oyalar. – 2025. – т. 1. – №. 5. – с. 350-352.

[3]Zaripov L.R., Amanova G.A. “Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida talabalarni o‘qitish jarayonida kognitiv kompetentsiyalarni rivojlantirish”//Tashkent Medical Academy Volume 4 | TMA Conference | 2024. Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions 2024. – B. 369-373; Xudoyberganov D. Y. (2024) ‘Stages of formation of cognitive competence in primary school students’, Inter education & global study, (7), 2024. – P. 76–83; Ibragimov A.A. Pedagogik ta’limda kognitiv texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari. Kognitiv va neyropedagogik tadqiqotlarning ta’lim amaliyotiga tatbig‘i // Xalqaro ilmiy

Yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar rivojlanishi B.S.Blum, L.W.Anderson, D.R.Krasvol, R.J.Sternberg, J.H.Fleivel, R.H.Ennis, L.Elder[4] kabi xorijiy olimlar tomonidan izchil tadqiq qilingan.

Kognitiv jarayonlar, til va inson tafakkuri mexanizmlari, kognitiv kompetensiyalarning ta'limdagi tipologiyasi va rivojlanish masalalari borasida E.Tikhonova, N.Kudinova, R.P.Millrood, I.R.Maksimova[5] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

"PhenoBL" ta'lim yondashuvining nazariy asoslari xorijiy olimlardan J.Piaget, L.S.Vigotski, J.Dyuvi, D.A.Kolb, J.Leiv, E.Venger, J.Braun[6] va boshqa olimlarning pedagogik-psixologik nazariyalariga tayanadi.

"PhenoBL" ta'lim yondashuvining ta'limda foydalanish masalasi chet el olimlaridan P.Sahlberg, P.Silander, P.Mattila, V.Simeonidis, J.F.Shvarz, D.L.Filds, T.J.Kennedi, H.P.Nguyen, K.Lonka, S.Adipat[7] tomonidan tadqiq qilingan.

Tillarni o'qitishda fenomenga asoslangan ta'limdan foydalanish masalasini MDH davlatlari olimlaridan T.S.Makarova, E.E.Matveeva, M.A.Molchanova va E.A.Morozova, A.S.Beloborodov[8] kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

- amaliy konferensiyasi materiallari. – Samarqand viloyati. PYMO'MM, 2024. A.A. 680 b.; Adizov B.R. O'qituvchi faoliyatida kognitiv kompetensiyaning orni //tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g 'oyalar. – 2025. – т. 1. – №. 1. – с. 28-33.; Mirboboyeva D.B. Fransuz tili darslarida o 'quvchilarning kognitiv kompetensiya va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish usullari //pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – т. 12. – №. 02. – с. 139-140.

[4] Bloom B. S. et al. Handbook I: cognitive domain //New York: David McKay. – 1956. – С. 483-498.; Krathwohl D. R. A revision of Bloom's taxonomy: An overview //Theory into practice. – 2002. – Т. 41. – №. 4. – С. 212-218.; Sternberg R. J., Sternberg K., Mio J. Cognitive psychology. – Belmont, CA: wadsworth, 2009. – С. 25-29.; Flavell J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry //American psychologist. – 1979. – Т. 34. – №. 10. – С. 906.; Ennis R. H. A logical basis for measuring critical thinking skills //Educational leadership. – 1985. – Т. 43. – №. 2. – С. 44-48.; Elder L. Critical thinking and emotional intelligence //Inquiry: Critical thinking across the disciplines. – 1996. – Т. 16. – №. 2. – С. 35-49.;

[5] Tikhonova E., Kudinova N. Sophisticated thinking: higher order thinking skills //Journal of Language and Education. – 2015. – Т. 1. – №. 3. – С. 12-23.; Millrood R., Maksimova I. Cognitive skills in education: typology and development //Язык и культура. – 2018. – №. 42. – С. 137-151.

[6] Piaget J. Piaget's theory //Piaget and his school: A reader in developmental psychology. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 1976. – С. 11-23.; Vygotsky L. S. Thought and language. – MIT press, 2012. – Т. 29.; Dewey J. Experience and education //The educational forum. – Taylor & Francis Group, 1986. – Т. 50. – №. 3. – С. 241-252.; Kolb D. A. Experiential learning: Experience as the source of learning and development. – FT press, 2014.; Lave J. Cognition in practice: Mind, mathematics and culture in everyday life. – Cambridge University Press, 1988.; Wenger E. et al. Communities of practice: Learning as a social system //Systems thinker. – 1998. – Т. 9. – №. 5. – С. 2-3.; Brown J. S., Collins A., Duguid P. Situated cognition and the culture of learning //1989. – 1989. – Т. 18. – №. 1. – С. 32-42.

[7] Sahlberg P. Finnish schools and the global education reform movement //Flip the system. – Routledge, 2015. – P. 162-177; Silander P. et al. Learning Computational Thinking in Phenomena-Based Co-creation Projects: Perspectives from Finland //Computational thinking education in K-12: Artificial intelligence literacy and physical computing. – MIT press, 2022. – P. 103-119; Mattila P., Silander P. How to create the school of the future: Revolutionary thinking and design from Finland //Finland: Multprint. – 2015; **S**ymeonidis V., Schwarz J. F. Phenomenon-based teaching and learning through the pedagogical lenses of phenomenology: The recent curriculum reform in Finland //Forum Oświatowe. – Uniwersytet Dolnośląski DSW. Wydawnictwo Naukowe DSW, 2016. – Т. 28. – №. 2 (56). – P. 31-47; Fields D., Kennedy T. J. What if… Phenomenon-based learning projects: Augmenting upper and early learning STEM lessons //INTED2020 Proceedings. – IATED, 2020. – С. 88-95.; Nguyen H. P. Phenomenon-based learning in Finnish and Vietnamese upper secondary school curriculum for English as a foreign language. 2018. – P. 130; Lonka K. & Westling S.K. Phenomenon-based Learning. In Lonka K. Phenomenal learning from Finland (1 edition). 2018. – P. 172–191.; Adipat S. Transcending traditional paradigms: the multifaceted realm of phenomenon-based learning //Frontiers in Education. – Frontiers Media SA, 2024. – Т. 9. – С. 1346403.

[8] Makarova T. S. et al. Phenomenon-based approach to teaching Russian as a foreign language in the cultural context //European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. – 2020. – P. 95; Белобородов А.С. The Method of Phenomenon-Based Learning //Linguistic Education Today: Culture, Communication, and Content and Language Integration. – 2018. – P. 53-57.

Mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili hozirgacha oliy ta’lim doirasida ingliz tilini o‘rganayotgan ikkinchi kurs talabalari o‘rtasida yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini „PhenoBL” ta’lim yondashuvi asosida takomillashtirish masalasi alohida tadqiq etilmaganini ko‘rsatishi mazkur tadqiqotning boshlanishi va olib borilishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Filologik oliy o‘quv yurtlarida chet tilini integrallashuv orqali o‘qitishda kadrlar tayyorlashning filologik hamda metodik asoslarini takomillashtirish” bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta’lim tashkilotlarida fenomenga asoslangan ta’lim (PhenoBL) yondashuvini qo‘llash asosida bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm, emergent learning va situated cognition nazariy konsepsiyalarini integratsiyalash asosida yaratilgan EED (Engage, Explore and Discover) uch fazali pedagogik texnologiyaning analitik, evaluative, kreativ va metakognitiv komponentlarini samaradorligini ilmiy asosda aniqlash;

“Uzbek PhenoBL” ta’lim modelining “Loyihalar asosida o‘qitish”, “Muammoli vaziyatlarda o‘qitish”, “tadqiqot va izlanishga oid o‘qitish”, fanlar aro o‘qitish”, “metakognitiv” “hamkorlik va jamoaviy”, “raqamli va aralash”, “baholashning shakllantiruvchi va xulosalovchi” usullariga tayanuvchi didaktik mexanizmining integratsiya qilinishi talabalarning analitik fikrlash, tanqidiy tahlil, fanlararo izlanish, hamkorlikda ishlash, o‘z-o‘zini baholash orqali o‘quv jarayonini didaktik jihatdan rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi aniqlash;

talabalarning kognitiv rivojlanishini monitoring qilish vazifasini phenobl.uz elektron sayti tarkibiy qismi e-HOCC jurnali orqali talabalarning transversal-kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarini rivojlanishini empirik jihatdan tekshirish va ularning kognitiv rivojlanish trayektoriyalarini belgilash;

tadqiqot doirasida PhenoBL” ta’lim yondashuvi tamoyillari va Cambridge AS va A level thinking skills dasturi maqsadlari asosida shakllantirilgan “Uzbek PhenoBL” modeli talabalarning mustaqil tadqiqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan interdisiplinar komponenti “talabaga yo‘naltirilgan”, “amaliyotga asoslangan ta’lim” va “uzluksiz ta’lim” konsepsiyalarini rivojlantirishini aniqlash;

olingan natijalar asosida PhenoBL yondashuvini yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish belgilangan.

Tadqiqotning obyekti oliy ta’lim tashkilotlarining ikkinchi kursida ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar o‘rtasida fenominga asoslangan ta’lim orqali yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tanlangan.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini takommilashtirishning mazmuni, shakllari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur ishda nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so‘rovlar, suhbat, so‘rovnoma, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, baholarni mustaqil umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqalar) usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi, konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivism, emergent learning va situated cognition nazariy konsepsiyalari integrallashuvi asosida yaratilgan EED (Engage, Explore and Discover) uch fazali pedagogik texnologiyasining analitik, evaluative, kreativ, metakognitiv komponentlarining samaradorligi ilmiy asosda isbotlangan;

“Uzbek PhenoBL” ta’lim modelining “Loyihalar asosida o‘qitish”, “Muammoli vaziyatlarda o‘qitish”, “Tadqiqot va izlanishga oid o‘qitish”, Fanlararo o‘qitish”, “Metakognitiv” “Hamkorlik va jamoaviy”, “Raqamli va aralash”, “Baholashning shakllantiruvchi va xulosalovchi” usullariga tayanuvchi didaktik mexanizmining integratsiya qilinishi talabalarning analitik fikrlash, tanqidiy tahlil, fanlararo izlanish, hamkorlikda ishlash, o‘z-o‘zini baholash orqali o‘quv jarayonini didaktik jihatdan rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi amaliy jihatdan dalillangan;

talabalarning mustaqil ta’limini nazorat qiluvchi, EED (Engage, Explore and Discover) pedagogik texnologiyasi asosida yaratilgan phenobl.uz elektron sayti tarkibidagi e-HOCC journali talabalarning kognitiv rivojlanish trayektoriyasini belgilab beruvchi Universitet 4.0 modeli talabidagi transversal-kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy, kommunikativ, raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishi empirik jihatdan isbotlangan;

“PhenoBL” ta’lim yondashuvi tamoyillari, Cambridge AS va A level Thinking skills dasturi maqsadlari asosida shakllantirilgan “Uzbek PhenoBL” modeli talabalarning mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi interdisiplinar komponenti “talabaga yo‘naltirilgan”, “amaliyotga asoslangan ta’lim” va “uzluksiz ta’lim” konsepsiyalarini rivojlantirishi ilmiy asosda isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xorijiy va mahalliy adabiyotlar, shuningdek, mavjud amaliy tajribalar tahlil qilinib, ingliz tilini o‘rganuvchi talabalarda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda fenomenga asoslangan ta’lim (PhenoBL) yondashuvining samaradorligi asoslab berildi;

ikkinchi bosqich talabalar uchun fenomenga asoslangan ta’lim doirasida yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni (tahlil qilish, baholash, ijodiy fikrlash) shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik ta’minot ishlab chiqildi;

talabalar kognitiv kompetensiyalarini takomillashtirishda EED (Engage, Explore, and Discover) texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi;

an’anaviy va fenomen-ga asoslangan ta’lim darslarining umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, bu yondashuvlar orqali erishilgan o‘quv natijalari qiyosiy tahlil qilindi;

fenomen-ga asoslangan ta’lim asosida ishlab chiqilgan metodika eksperimental tarzda sinovdan o‘tkazilib, uning samaradorligi amaliy dalillar bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida qo‘llanilgan yondashuv, usul hamda ilmiy adabiyotlar va manbalarning ishonchliligi, pedagogik nazariyalar hamda zamonaviy metodikaga muvofiqligi, shuningdek, tahlillar va tajriba-sinov ishlari natijalarining ishonchliligi, ularning matematik-statistik jihatdan tahlil natijalarining mavjudligi, xulosalar taqdim etilganligi, ko‘rsatilgan tavsiyalarning amaliyotda tadbiq etilishi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan erishilgan natijalar rasmiylashtirilib tasdiqlanganligi bilan belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha nazariy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi va PhenoBL yondashuvini O‘zbekiston oliy ta’lim muhitiga moslashtiradi. Tadqiqot doirasida analitik, baholovchi, ijodiy va metakognitiv boshqaruv o‘lchanadigan kompetensiyalar sifatida aniq belgilandi hamda ularni baholash mezonlari va darajalari ishlab chiqildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari talaba markazli va kompetensiyaga asoslangan ta’lim yondashuvlarini o‘qituvchilar tayyorlash jarayoniga integratsiya qilish imkonini beradi va Universitet 4.0 modeli va zamonaviy ta’lim islohotlariga mos ravishda oliy ta’limni modernizatsiya qilishga hissa qo‘shadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning real ta’lim jarayonida qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash uchun tayyor ishlatiladigan PhenoBL asosidagi o‘quv modelini, aniq o‘qitish jarayonlari, o‘quv-topshiriqlar va baholash vositalarini taqdim etadi. Ushbu model o‘qituvchilarga talabalarning kognitiv kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek, natijalarga asoslangan baholashni amalga oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, yondashuv yuqori darajadagi tafakkur, tanqidiy fikrlash, ijodiylik va reflektiv ko‘nikmalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi hamda universitet o‘quv dasturlari, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarida samarali tarzda tatbiq etilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. PhenoBL yondashuvi orqali yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi, konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivism, emergent learning va situated cognition nazariy konsepsiyalari integrallashuvi asosida yaratilgan EED (Engage, Explore and Discover) uch fazali pedagogik texnologyasining analitik, evaluative, kreativ, metakognitiv komponentlarining samaradorligini ta’minlashga xizmat qilganligi haqidagi ilmiy xulosalardan Akademik E.A.Buketov nomidagi Karaganda universiteti Xorijiy tillar fakulteti Xorijiy filologiya kafedrasining ta’lim jarayoniga joriy etildi (Akademik E.A.Buketov nomidagi Karaganda universitetining 2025-yil 29-apreldagi 01-2026-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur texnikadan 2025-yil 29-apreldan boshlab “English for IELTS” fanini o‘qitish jarayonida tizimli ravishda joriy etish natijasida PhenoBL yondashuvi integratsiyalashgan, yuqori darajadagi kognitiv

kompetensiyalarni izchil va tizimli rivojlantirishga yo‘naltirilgan IELTS o‘quv materiallari ishlab chiqildi hamda ta’lim jarayoniga tatbiq etildi;

“Uzbek PhenoBL” ta’lim modelining “Loyihalar asosida o‘qitish”, “Muammoli vaziyatlarda o‘qitish”, “tadqiqot va izlanishga oid o‘qitish”, fanlar aro o‘qitish”, “metakognitiv” “hamkorlik va jamoaviy”, “raqamli va aralash”, “baholashning shakllantiruvchi va xulosalovchi” usullariga tayanuvchi didaktik mexanizmining integratsiya qilinishi talabalarning analitik fikrlash, tanqidiy tahlil, fanlararo izlanish, hamkorlikda ishlash, o‘z-o‘zini baholash orqali o‘quv jarayonini didaktik jihatdan rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi amaliy jihatdan isbotlanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan “English Access Microscholarship Program” loyihasi doirasida foydalanilgan (2024-yil 20-dekabrdagi 2829-02-sonli ma’lumotnoma, Samarkand Davlat Chet Tillar Instituti). Natijada, talabalarning analitik fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish, fanlararo izlanish olib borish, jamoada hamkorlikda ishlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalari rivojlanib, o‘quv jarayonining samaradorligi oshgani amaliy jihatdan tasdiqlandi.;

talabalarning mustaqil ta’limini nazorat qiluvchi, EED (Engage, Explore and Discover) pedagogik texnologiyasi asosida yaratilgan phenobl elektron sayti tarkibidagi e-HOCC journali talabalarning kognitiv rivojlanish trayektoriyasini belgilab beruvchi Universitet 4.0 modeli talabidagi transversal-kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy, kommunikativ, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishi empirik jihatdan isbotlanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan 2024-yilda Toshkentdagi AQSh elchixonasi tomonidan rejalashtirilgan “O‘zbekistonda Ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o‘rgatish” loyihasida tatbiq etildi (2025-yil 7-martdagi 661-02-sonli ma’lumotnoma, Samarkand Davlat Chet Tillar Instituti). Natijada, talabalarning kognitiv rivojlanish trayektoriyasini samarali kuzatish imkoniyati yaratildi, shuningdek, Universitet 4.0 modeli talablariga mos ravishda transversal-kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy, kommunikativ va raqamli kompetensiyalari rivojlanib, mustaqil ta’lim samaradorligi oshgani amaliy jihatdan tasdiqlandi.

“PhenoBL” ta’lim yondashuvi tamoyillari va Cambridge AS va A level thinking skills dasturi maqsadlari asosida shakllantirilgan “Uzbek PhenoBL” modeli talabalarning mustaqil tadqiqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi interdisiplinar komponenti “*talabaga yo‘naltirilgan”, “amaliyotga asoslangan ta’lim” va “uzluksiz ta’lim”* konsepsiyalarini rivojlantirishi bo‘yicha olingan ilmiy xulosalardan 2024-yil 25-iyunda efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” teleko‘rsatuvi skriptini tayyorlashda foydalanildi (2025-yil 6-martdagi 01-07/-101-sonli ma’lumotnoma, Samarkand Davlat Chet Tillar Instituti). Natijada, teleko‘rsatuv mazmuni talabaga yo‘naltirilgan, amaliyotga asoslangan hamda uzluksiz ta’lim g‘oyalarini yoritishga xizmat qilib, talabalarning mustaqil tadqiqot olib borish, tanqidiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati keng jamoatchilikka tushunarli tarzda targ‘ib qilindi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi doirasida jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan 8 tasi ilmiy maqola bo‘lib, ularning 5 tasi

respublika ilmiy jurnallarida, 3 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan. Mazkur nashrlar O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish va asosiy qism, 3 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 159 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab beriladi, uning maqsad va vazifalari aniqlanadi, obyekti va predmeti tavsiflanadi, Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatiladi, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etiladi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib beriladi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumot beriladi.

Dissertatsiyaning birinchi bobiga "Yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar va fenomen-ga asoslangan ta'lim (PhenoBL) yondashuvi hamda ularni rivojlantirish mezonlarining nazariy asoslari" deb nom berilgan. Ushbu bobda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarning ta'rifi va mohiyati, ularning oliy ta'lim kontekstidagi ahamiyati haqida so'z boradi; Fenomen-ga asoslangan ta'lim yondashuvi nazariy asoslari, mezonlari hamda PhenoBL yondashuvini qo'llash talablari bayon qilinadi.

Bobning birinchi paragrafi "Yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni aniqlash va ularning oliy ta'lim kontekstidagi ahamiyati" deb nomlanadi. Ushbu paragrafda kognitiv kompetensiya, xususan yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni tashkil etuvchi komponentlari ta'riflanadi, fenomenning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi va oliy ta'lim muhitida ularni rivojlantirishning asoslari aniqlanadi.

Kompetensiya inson kapitalining muhim boyligi hisoblanadi, u shaxs va jamiyatning mahsuldorligini oshiradi. Shu boisdan ta'limda kognitiv kompetensiyalar va kognitsiya falsafasini tadqiq etishga qiziqish tobora ortib bormoqda. Insonlarning voqelikni qanday talqin qilishi va anglash jarayoni ularning ongida mavjud bo'lgan kognitiv jarayonlar bilan belgilanadi.

R.Maksimova va I.Millroadning[9] ta'kidlashicha, kognitiv kompetensiyalar bu – o'quvchining axborotni qayta ishlash, yangi bilim yaratish, integratsiya qilish va vaziyatli muammolarni hal etish vositalarini ishlab chiqish hamda qo'llash imkonini beruvchi funksional mexanizmlaridir.

Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarning kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratishimizning asosiy sababi shundaki, bu ularning akademik faoliyatida amalga oshiradigan kognitiv operatsiyalari doirasiga bevosita taalluqlidir. Shu bilan birga, o'quvchilarning testlardagi standartlashtirilgan natijalariga ortiqcha e'tibor qaratish ularning kognitiv rivojlanish darajasini qanchalik aks ettirishi mumkinligi borasida savol tug'diradi

[9] Millrood R., Maksimova I. Cognitive skills in education: typology and development //Язык и культура. – 2018. – №. 42. – С. 137-151.

Ta’kidlash joizki, talabalarning testlardagi standartlashtirilgan yutuqlarining oshishi ko‘pincha ularda kognitiv kompetensiyalar emas, balki fan kompetensiyalarini rivojlantirish natijasidir[10]. Bu esa o‘z navbatida, akademik muassasalarda asosiy e’tibor fan bo‘yicha bilimlarni oshirishga qaratilib, intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasi yetarlicha baholanmayotganini anglatadi (1-rasmga qarang):



1-rasm. Yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarning komponentlari

Yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarning (HOCC) asosiy komponentlari sifatida A.Lewis va D.Smith[11] muammoni hal qilish, tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini kiritadilar. K.Rhashvinder va K.Charanjit[12] esa bu tarkibga tanqidiy, mantiqiy, reflektiv, metakognitiv va ijodiy fikrlashni kiritadilar.

Bu yerda muhim savol tug‘iladi: yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar qachon faollashadi? A.Kingning[13] ta’kidlashicha, yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar o‘quvchi bahsli, notanish muammolar, noaniqliklarga duch kelganda faollashadi.

Keyingi paragrafda esa Fenomenlarga asoslangan ta’lim yondashuvining konseptual hamda nazariy asoslari tahlil qilindi (1-javalga qarang):

Fenomenlarga asoslangan ta’lim (PhenoBL) zamonaviy konstruktivistik o‘rganish nazariyalariga tayangan holda shakllangan bo‘lib, bilimni passiv tarzda qabul qilishdan ko‘ra uni faol ravishda konstruksiya qilish jarayonini ustuvor deb hisoblaydi (1-jadvalga qarang):

[10] Finn A. S. et al. Cognitive skills, student achievement tests, and schools //Psychological science. – 2014. – T. 25. – №. 3. – C. 736-744.
[11] Lewis A., Smith D. Defining higher order thinking //Theory into practice. – 1993. – T. 32. – №. 3. – C. 131-137.
[12] Singh R. K. A. et al. A review of research on the use of higher order thinking skills to teach writing //International Journal of English Linguistics. – 2018. – T. 8. – №. 1. – C. 86-93.
[13] King A. Structuring peer interaction to promote higher-order thinking and complex learning in cooperating groups //The teacher’s role in implementing cooperative learning in the classroom. – Boston, MA: Springer US, 2008. – C. 73-91.

1-jadval

Fenomenlarga asoslangan ta’lim yondashuvining nazariy asoslari

Nazariya	Ta’rif	Asosiy g‘oyalar	Asosiy nazariyotchilar
Konstruktivizm	O‘quvchilar tajriba orqali dunyo haqidagi tushuncha va bilimlarini quradilar hamda o‘sha tajribalarni tahlil qilib, o‘zlari yaratgan bilim egasiga aylanadilar.	O‘qish faol, konstruktiv jarayon sifatida qaraladi, tayyor holda emas, balki qurib boriladi. Yangi bilim avvalgi bilimlar asosida shakllanadi.	J.Piaget[14], J.Bruner[15]
Ijtimoiy konstruktivizm	Bilimni qurishda ijtimoiy muloqot, til va madaniyatning roli muhim. O‘qish jarayoni madaniy kontekstda hamkorlik va muloqot orqali shakllanadi.	Bilim ijtimoiy muloqot orqali yaratiladi. O‘rganishda “yaqin rivojlanish zonasi”da yo‘l-yo‘riq va yordam (scaffolding)ning ahamiyati ta’kidlanadi	L.Vygotsky[16]
Muayyan vaziyatda shakllanuvchi tafakkur (Situated Cognition)	Bu bilish (o‘rganish va fikrlash) jarayoni real ijtimoiy, madaniy va amaliy kontekst bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanishini ta’kidlovchi nazariya. Ya’ni bilim: • abstrakt holda emas, • balki muayyan vaziyat, faoliyat va tajriba ichida hosil bo‘ladi	O‘qish kontekstga bog‘liq bo‘ladi va mazmunli faoliyatlar taqdim etilganda yaxshi rivojlanadi.	J.Lave[17], E.Wenger[18]
Tabiiy shakllanuvchi o‘rganish	Bu oldindan qat’iy rejalashtirilmagan, balki o‘quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari, tajribasi va o‘zaro hamkorligi jarayonida asta-sekin paydo bo‘ladigan o‘rganish turidir. U murakkab tizimlar va muhitlar bilan o‘quvchilarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi.	Bilim izlanish, tajriba va hamkorlik orqali yaratiladi. Uni qat’iy boshqarib bo‘lmaydi, u sharoitlarning o‘zgarishi orqali shakllanadi.	G.Siemens[19]

Konstruktivizmning asosiy g‘oyasiga muvofiq, o‘rganuvchilar bilimni o‘qituvchi tomonidan tayyor holatda uzatiladigan ma’lumot sifatida emas, balki tajriba, refleksiya va yangi axborotni mavjud bilimlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish orqali mustaqil ravishda shakllantiradilar[20]. Konstruktivistik epistemologiyaga ko‘ra, bilim na passiv o‘zlashtiriladigan hodisa, na voqelikning qat’iy va o‘zgarmas in’ikosi bo‘lib, balki o‘rganuvchining mavjud kognitiv tuzilmalari hamda atrof-muhit bilan o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladigan faol talqin jarayoni hisoblanadi[21].

“PhenoBL” yondashuvini pedagogik nuqtai nazardan ta’riflash jarayonida uning asosiy pedagogik tamoyillarini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Fenomenlarga asoslangan ta’lim muhiti, bu o‘quvchiga yo‘naltirilgan, fanlararo yondashuvga tayanuvchi hamda o‘quvchilarning izlanishi va muammolarni ilmiy

[14] Piaget J. Piaget’s theory //Piaget and his school: A reader in developmental psychology. – Berlin, Heidelberg: Springer Berlin Heidelberg, 1976. – C. 11-23.
[15] Bruner J. A short history of psychological theories of learning //Daedalus. – 2004. – T. 133. – №. 1. – C. 13-20.
[16] Vygotsky L., Cole M. Lev Vygotsky: Learning and social constructivism //Learning Theories for Early Years Practice. UK: SAGE Publications Inc. – 2018. – C. 68-73.
[17] Lave J. Situating learning in communities of practice. – 1991.
[18] Wenger E. et al. Communities of practice: Learning as a social system //Systems thinker. – 1998. – T. 9. – №. 5. – C. 2-3.
[19] Siemens G., Tittenberger P. Handbook of emerging technologies for learning. – Manitoba: University of Manitoba, 2009. – C. 65.
[20] Tryphon A., Voneche J. Working with Piaget: Essays in Honour of Barbel Inhelder. – Psychology Press, 2013.
[21] Gallas K. Talking their way into science: Hearing children's questions and theories, responding with curricula. – Teachers College Press, 1995.

tarzda hal qilish faoliyatiga asoslangan ta’lim usulidir. V.Symeonidis[22] tasnifiga ko‘ra, fenomenlarga asoslangan ta’limning asosiy tamoyili quyidagilar: *yaxlitlik, kontekstualizatsiya, muammoga asoslangan izlanish, o‘qituvchi rolining o‘zgarishi, reallik va o‘rganish jarayonidir*.

Fenomenlarga asoslangan ta’lim (PhenoBL) o‘quv jarayonini yaxlit va integrativ yondashuv asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, ta’lim va real hayot hodisalari alohida fanlar doirasida emas, balki o‘zaro bog‘liq tizim sifatida talqin qilinadi. Shu bois, bilim va ko‘nikmalar real, mazmunli hamda dolzarb kontekstlarda shakllantiriladi va turli fanlar o‘rtasida integratsiya ta’minlanadi.

“PhenoBL”da o‘rganish jarayoni o‘quvchilar tomonidan ilgari surilgan hamda real hayot bilan bog‘liq muammolar asosida tashkil etiladi. Bunda ta’lim jarayoni gipotezalar va turli modelllarni ishlab chiqish orqali amalga oshirilib, bilimni shunchaki yod olish bilan cheklanmaydi, balki uni chuqur anglash va amaliy qo‘llashga yo‘naltiriladi.

Mazkur yondashuv o‘qituvchining rolini ham o‘zgartiradi: u bilim manbai emas, balki o‘quvchilarning mustaqil izlanish faoliyatiga yo‘naltiruvchi va moderator sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim jarayoni real hayot hodisalari va amaliyotlariga asoslanib, real manbalar hamda mutaxassislar ishtirokida tashkil etiladi.

PhenoBL yondashuvini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish uning ta’lim bosqichlarini bilishni talab etadi (2-rasmga qarang):



2-rasm. “PhenoBL” ta’lim yondashuvining bosqichlari

Dissertatsiyaning ikkinchi bobiga “PhenoBL” ta’lim yondashuvi asosida yuqori darajadagi kognitiv kompetentsiyalarni takomillashtirishning metodologik asoslari” deb nom berilgan.

Birinchi paragraf (2.1) “Ikkinchi kurs talabalari uchun malaka talablarini, o‘quv dasturlarini va darsliklarni tahlil qilish” bo‘lib, unda ikki yo‘nalish – Xorijiy til va adabiyoti bakalavriati (60111800: Ingliz tili) va 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishining malaka talablarini, o‘quv dasturlarini, o‘quv rejalari va darsliklarini tahlil qilinadi. 2.2-paragrafda O‘zbekistonda PhenoBL modelini oliy ta’lim kontekstiga integratsiya qilishning kompleks tizimli yondashuvi tahlil qilinadi, 2.3-paragrafda til o‘rganish yo‘nalishidagi ta’lim muassasalarida ikkinchi kurs talabalari uchun “PhenoBL” yondashuvi orqali yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni takomillashtirishga mo‘ljallangan topshiriqlar tizimi tahlil qilinadi.

[22] Symeonidis V. Phenomenon-based teaching and learning through the pedagogical lenses of phenomenology: The recent curriculum reform in Finland. – 2016.

Ikki yo‘nalish uchun mo‘ljallangan me’yoriy hijjatlarini tahlil natijalari talabalarni til ko‘nikmalariga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitish ularning og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalari hamda turli kontekstlarda lingvistik, pragmatik va sotsiolingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Ikkinchi paragrafda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida “PhenoBL” ta’lim yondashuvining integratsiya qilish modeli taklif etilgan bo‘lib, u Fin modeli asosida moslashtirilgan va bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarini tayyorlash uchun oliy ta’lim kontekstiga integratsiya qilinishi, shuningdek, uning asosiy funksiyalari aniqlanishi ko‘zda tutilgan.

Taklif etilayotgan O‘zbek PhenoBL oliy ta’lim modeli kompetensiya va fenomenlarga asoslangan ta’limni birlashtirib, yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalar, transversal kompetensiyalar va ingliz tilida professional muloqot kompetensiyasiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Model institutsional, o‘quv dasturi va instruksional darajalarda amalga oshiriladi (3-rasmga qarang):



3-rasm. Bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyasini takomillashtirishga yo‘naltirilgan O‘zbek PhenoBL didaktik modelining siklik tuzilishi

Institutsional darajada u O‘zbekistonning milliy malaka talablari hamda Cambridge International AS & A Level Thinking Skills dasturi bilan uyg‘unlashib,

tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, baholash, sintez, metakognitiv refleksiya va ingliz tilida professional muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratiladi.

O‘quv dasturi darajasida modullar Tarix, Adabiyot va Psixologiya kabi fanlar asosida tashkil etilib, fan doirasida mustaqil ta’lim tanlov modullari taklif qilinadi. Bu holatda talaba o‘z qiziqishi asosida mustaqil ta’lim modullarini tanlashlari va bir semestr davomida tadqiqotlarni olib borishlari mumkin. Masalan *globalizatsiya, raqamli ta’lim va sun’iy intellekt, jamoat salomatligi kommunikatsiyasi, iqlim o‘zgarishi* kabi mavzular doirasida tadqiqotlar tashkil etilishi mumkin.

Instruksional darajada ta’lim jarayoni oltita bosqichni o‘z ichiga oladi: fenomenni tanishtirish, muammoni aniqlash, fanlararo tadqiqot, kognitiv tahlil, yaratish va refleksiya. Baholash mezonlari rubrikalar, portfoliolar va amaliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Modelni joriy etish uchun malakali o‘qituvchilar, moslashuvchan o‘quv dasturi, raqamli resurslar va institutsional darajadagi shart-sharoitlar bo‘lishi talab etiladi.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi til o‘rganish muassasalarida PhenoBL yondashuvi orqali ikkinchi kurs talabalarda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga mo‘ljallangan topshiriqlar tizimini shakllantirishga bag‘ishlangan. 4-, 5- va 6-rasmlar EED (Engage, Explore, Discover – Jalb qilish, Tadqiq qilish va Kashf etish) pedagogik texnologiyasi til o‘rganish tashkilotlarida PhenoBL yondashuvi orqali ikkinchi kurs talabalarda yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga integratsiya qilish bosqichlarini vizual tarzda tasvirlaydi (4-rasmga qarang):



4-rasm. Qiziqtirish, Tadqiq etish va Kashf qilish texnikasi (1-bosqich)

Texnikaning birinchi bosqichida talabalar o‘zlarini chinakam qiziqtirgan umumiy mavzuni tanlaydilar. Ushbu mavzu real-hayotdagi muammolar voqea-hodisalar, atrof-muhit masalasi, kasb yo‘nalishi, ijtimoiy tendensiya yoki tarixiy voqea bo‘lishi mumkin. Mavzu keng qamrovli bo‘lishi va ma’lum bir muammo doirasida cheklanmasligi lozim. Talabalar tanlagan mavzularini aniq belgilab, uning maqsadi haqida qisqacha izoh berishlari shart (5-rasmga qarang):



5-rasm. Tadqiqot ishi olib borish bosqichi

Mustaqil o‘rganishning ikkinchi bosqichida talabalar tanlagan mavzulariga muvofiq original tadqiqot ishini rejalashtirish va amalga oshirish bilan shug‘ullanadilar. Avvalo ular asosiy ma’lumotlarni to‘plash usulini belgilaydilar va mavzuning tabiati va xususiyatiga qarab eng maqbul metodni tanlaydilar, masalan, suhbatlar, so‘rovnomalar, kuzatuvlar yoki tajribalar (6-rasmga qarang):



6-rasm. Xulosa, muhokama va taqdimot qilish bosqichi

Talabalar to‘plangan ma’lumotlarni tizimli ravishda tahlil qilib, o‘z tadqiqotlari natijalarini talqin qiladilar va mazmunli xulosalar hosil qiladilar. Ushbu bosqichda ular asosiy ma’lumotlardan olingan natijalarni batafsil o‘rganib, o‘zlari uchun ilmiy xulosalarni shakllantiradilar va tadqiqotlari asosida yuzaga kelgan noma’lum ilmiy tadqiqot mavzularini aniqlaydilar. Bu davrda o‘z ilmiy topilmalarini birinchi bosqichda to‘plangan bilimlari bilan solishtiradilar. Mazkur qiyoslash ilmiy topilmalarni mavzuga oid mavjud bilimlarni tasdiqlashi, kengaytirishi yoki zid kelishini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu mustaqil ta’lim faoliyati talabalarni mustaqil o‘qish, tadqiqot olib borish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni olti haftalik shaxsiy qiziqish mavzusini mustaqil o‘rganishga yo‘naltiradi. Faoliyatning maqsadi – talabalarni mazmunli izlanishga jalb qilish, ularning o‘z ta’lim jarayonini nazorat qilishini ta’minlash hamda akademik va hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Fenomenni o‘rganishga qaratilgan o‘quv jarayoni mavzuni turli fanlar kesimida tadqiq qilish imkoniyatini yaratadi. Har bir guruh a’zosi o‘quv jarayonlarga olim, tadqiqotchi va mutaxassis sifatida yondashadi. Bu o‘z navbatida ularni o‘z ta’limlariga nisbatan yanada mas’uliyatli bo‘lishlariga undaydi va jarayonning har bosqichida ularning yuqori darajadagi kognitiv kompetensiya komponentlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Garchi quyidagi o‘quv jarayoni uzoq muddat talab qilsa ham, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Finlandiya ta’lim tizimida o‘z isbotini topganidek uni muntazam amalga oshirish vaqt o‘tishi bilan sezilarli natijalar beradi.

Tadqiqot ishini yakunlagach, o‘rganilgan fenomen bo‘yicha HOCC(higher-order cognitive competences) jurnal yoki portfolio va jarayonlar tafsilotlari yozib olingan Inquiry Log topshiriladi va ular formativ baholash uchun xizmat qiladi.

EED ped.texnologiyasida beriladigan topshiriq va mashqlar quyidagilardan iborat (2-3-jadvallarga qarang):

2-jadval

EED texnikasida qo‘llanuvchi topshiriq va mashqlar

Bosqichlar	Topshiriq 1	Topshiriq 2	Topshiriq 3	Topshiriq 4
1. Engage bosqichi (Qiziqtirish bosqichi) real hayot hodisasi orqali qiziqish uyg‘otish	**Kuzatuv vazifalari** Qisqa video, rasm ko‘rsatiladi. Nimalarni kuzatdingiz? Sizni nima hayratlantirdi?	**O‘yla–Juftlikda muhokama qil–Ulash (Think–Pair–Share)** Talabalar avval mustaqil o‘ylaydi. So‘ng sherigi bilan muhokama qiladi. G‘oyalarni guruh bilan baham ko‘radi. Mashq 5 ta ehtimoliy tushuntirish (izoh) ishlab chiqing. Tadqiq qilish uchun eng qiziqarli savolga ovoz bering	**Savol tuzish (Tadqiqot devori) (Inquiry Wall)** Savollarini stikerlarga yozadilar. Ularni quyidagi toifalarga ajratadilar: • Ilmiy • Ijtimoiy • Iqtisodiy • Ekologik	**Tahmin qilish mashqi** Talabalar: Sabablar, oqibatlar yoki yechimlar haqida tahmin qiladilar. O‘z fikrlarini asoslaydilar.
(Tadqiqot bosqichi) tadqiq qilish, tajriba o‘tkazish, ma’lumot to‘plash va tahlil qilish.	**Tadqiqot vazifalari** Guruhlar: 1-guruh: Ekologik ta’sir 2-guruh: Iqtisodiy ta’sir 3-guruh: Inson salomatligi 4-guruh: Ijtimoiy ta’sir Vazifalar: Ma’lumot to‘plash Diagrammalar tuzish Xulosalarni umumlashtirish	**Field Work /Dala tadqiqoti / Kuzatuv** So‘rovnoma o‘tkazish Intervyu olish Real ma’lumotlarni to‘plash Tegishli joyga tashrif buyurish **Mashq:** Qisqa hisobotni tayyorlash	**Tajriba o‘tkazish** Oddiy tajribalar loyihalash Natijalarni jadvalga yozish Tahminlarni natijalar bilan solishtirish	**Ma’lumotlarni tahlil qilish** Grafiklarni tahlil qilish Xulosalar chiqarish Qarama-qarshiliklarni muhokama qilish **Hamkorlikda muammo yechish** Ehtimoliy yechimlar bo‘yicha “aqliy hujum” Afzallik va kamchiliklarni baholash Amalga oshirish imkoniyatiga ko‘ra saralash
(Kashf etish bosqichi) chuqur tushuncha shakllantirish va yechim taklif qilish.	**Konseptual xarita tuzish** Aqliy xarita yarating va quyidagilarni bog‘lang: Sabablar Oqibatlar Manfaatdor tomonlar Yechimlar	**Model yoki prototip yaratish** Model yaratish Prototip yechim ishlab chiqish	**Taqdimot va refleksiya** Natijalarni taqdim etadilar O‘z fikrlarini himoya qiladilar Quyidagilar haqida fikr yuritadilar: Biz nimani kashf etdik? Fikrlashimiz qanday o‘zgardi?	**Harakat rejasi ishlab chiqish** PhenoBL real hayotga ta’sir ko‘rsatishni rag‘batlantiradi. Talabalar: Real jamoaviy harakat taklif qiladilar Bosqichma-bosqich amalga oshirish rejasini tuzadilar Manfaatdor tomonlarni aniqlaydilar

3-jadval

EED texnikasida qo‘llaniladigan metod va texnikalar (jarayonlar)

	Engage stage	Explore	Discover
